

XALQARO SHARTNOMALAR - XALQARO HUQUQNING MANBASII SIFATIDA

Mahmudova Gulnora

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti "Xalqaro huquq"
fakulteti 1-kurs talabasi*

Annontatsiya: *Mazkur maqolada xalqaro shartnomalar huquqining shakllanishi, uning mazmuni va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Xalqaro shartnomalar tushunchasining huquqiy asoslari, tarixiy rivojlanishi, shuningdek, shartnomalarni tuzish va amalga oshirish prinsiplari batafsil yoritiladi. Vena konvensiyalarining mazmuni, davlatlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi huquqiy kelishuvlar misollari keltiriladi. O‘zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarning ahamiyati, ularga oid qonunchilik va ratifikatsiya jarayonlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Xalqaro shartnomalar, Vena konvensiyasi, xalqaro huquq, davlatlararo shartnomalar, xalqaro tashkilotlar, shartnoma prinsiplari, O‘zbekiston qonunchiligi, ratifikatsiya, memorandum, inson huquqlari konvensiyalari.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается формирование права международных договоров, его содержание и практическое значение. Подробно освещаются правовые основы понятия международного договора, его историческое развитие, а также принципы заключения и реализации договоров. Приводится содержание Венских конвенций и примеры правовых соглашений между государствами и международными организациями. Анализируется значение международных договоров в Республике Узбекистан, соответствующее законодательство и процессы ратификации.*

Ключевые слова: *Международные договоры, Венская конвенция, международное право, межгосударственные соглашения, международные организации, принципы договоров, законодательство Узбекистана, ратификация, меморандум, конвенции по правам человека.*

Annotation: *This article examines the development of international treaty law, its content, and practical significance. It provides a detailed analysis of the legal foundations of the concept of international treaties, their historical evolution, and the*

principles of their conclusion and implementation. The content of the Vienna Conventions is discussed, along with examples of legal agreements between states and international organizations. The article also analyzes the importance of international treaties in the Republic of Uzbekistan, relevant legislation, and the ratification processes.

Keywords: *International treaties, Vienna Convention, international law, interstate agreements, international organizations, treaty principles, legislation of Uzbekistan, ratification, memorandum, human rights conventions.*

Reja:

1. Xalqaro shartnomalarning dastlabki shakllanishi.
2. Xalqaro shartnomalarning tushunchasi va huquqning shakllanishi.
3. Xalqaro shartnomalar misollar orqali manba sifatida foydalanilishi

Birinchi navbatda, xalqaro shartnoma nima ekanligiga to'xtaladigan bo'lsak, Shartnoma so'ziga ta'rif bersak, inglizcha "treaty" so'zidan olingan – umumiy ma'noda xalqaro barcha kelishuvlarni anglatish, ifodalash uchun qo'llaniladigan atama.

Xalqaro huquqning bir, ikki yoki bir qancha subyektlari o'rtasida o'zaro huquq va majburiyatlarni yaratish yo'li bilan aniq ifodalangan, nomlanishidan qat'iy nazar, xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan bitim hisoblanadi. 2 1969-yilgi "Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena konvensiyasi hamda 1986-yildagi "Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risida"gi Vena konvensiyasida "shartnoma" atamasiga ta'rif berilgan. Faqat farqlari mavjud, ya'ni 1969- yildagi konvensiyaning 2-moddasida davlatlararo yozma tarzda tuzilgan shartnomalar tushuniladigan bo'lsa, 1986-yildagi konvensiyaning ham 2-moddasi bo'yicha xalqaro tashkilotlar ishtirokidagi kelishuvlarning ham tushunilishi aytib o'tilgan. 3 Xalqaro shartnomalarning qadimdan kelib chiqishi ikki daryo oralig'I bo'lgan Bobil va Misrda, Xitoy va Hindistonda, qadimgi gretsiyada va Rimda paydo bo'lgan va rivojlangan. Miloddan avvalgi XXIII asrda tuzilgan va hozirgi kunga qadar yetib kelgan Akkadlar shohi Naramsin bilan Elam hukmdorlari o'rtasida tuzilgan bitimlar xalqaro shartnomalardan biri hisoblanadi.⁴

1 Xalqaro shartnomalar huquqi: O‘quv qo‘llanma // Azimov M.M., Muminov A.R. – nashriyoti, 2017. – 59b.

2 Xalqaro shartnomalar huquqi: O‘quv qo‘llanma // Azimov M.M., Muminov A.R. – T.: TDYU nashriyoti, 2017. – 30b.

3 1969-yildagi “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi Vena konvensiyasi 2-moddasi

⁴ Xalqaro shartnomalar huquqi: O‘quv qo‘llanma // Azimov M.M., Muminov A.R. – T.: TDYU

Hozirgi kunda xalqaro munosabatlarda shartnomalarsiz amalga oshiriladigan soha juda kam hisoblanadi. O‘zi xalqaro shartnomaga berilgan ilmiy ta’rifni yuqorida berib o‘tdik. Ushbu ta’rifni sharhlaydigan bo‘lsak, shartnoma tuzish uchun, albatta, ikki va undan ortiq subyekt mavjud bo‘lishi yoki bir tomon subyekt sifatida ikkinchi tomon xalqaro subyekt hisoblanmaydigan holatlar ham mavjud bo‘lishi mumkin. Xalqaro tashkilotlar tomonidan tuziladigan shartnomalar ko‘p tomonlama hisoblanadi, chunki ushbu tashkilotga a‘zo davlatlar ishtirokida ushbu shartnoma tasdiqlanadi. Ikki tomonlamali shartnomalar esa ikki davlat yoki biri davlat ikkinchisi xalqaro tashkilot hisoblangan davlatlar ishtirokida ham imzolanishi mumkin. Bunga misol sifatida davlatni moliyaviy tomondan kreditlash uchun xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan tuziladigan ikki tomonlamali shartnomalarda bir tomon davlat, ikkinchisi xalqaro tashkilot bo‘lishiga misol bo‘ladi. Bir narsani aytish kerak, davlatlar o‘rtasida tuziladigan har qanday shartnomalar ham xalqaro shartnoma hisoblanmasligi shartnomalar bo‘yicha Xalqaro huquq Komissiyasining birinchi ma‘ruzachisi J.Braerli tomonidan ta’kidlangan: “Xalqaro shartnoma tuzish layoqatiga ega bo‘lgan tuzilmalar tomonidan tuzilgan har qanday shartnoma ham xalqaro shartnoma bo‘lavermaydi”. ⁵ Bunga misol qilib hozirda davlatlar o‘rtasida imzolanayotgan memorandum xalqaro bitim hisoblanmasligini aytib o‘tsak bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida energetika sohasidagi hamkorlik bo‘yicha 2011-yil 24-yanvardagi Brusselda imzolangan memorandum xalqaro shartnoma sifatida tomonlarga majburiyat olishga majburlamaydi. Shu o‘rinda aytib o‘tamiz, xalqaro shartnoma – davlatlar yoki xalqaro huquqning boshqa subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro huquq va majburiyatlarini o‘rnatish, ijro etish, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan tegishli tartibdagi roziligi hisoblanadi.

Ushbu ta’rifdan kelib chiqsak, xalqaro shartnomalarda tomonlar o’ziga huquq va majburiyat olishi belgilangan, lekin yuqoridagi memorandum tomonlarga majburiyat yuklamasligi keltirib o’tilgan. Xalqaro shartnomalar huquqining asosiy 3 ta manbasi mavjud:

✓ 1969-yildagi Xalqaro shartnomalar huquqi to’g’risidagi Vena konvensiyasi – faqatgina davlatlararo tuzilgan shartnoma hisoblanadi;

Admin 2, [4/25/2025 11:46 PM]

✓ 1978-yilda Shartnomalarga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisligi to’g’risidagi Vena konvensiyasi;

✓ 1986-yildagi Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o’rtasidagi shartnomalar to’g’risidagi Vena konvensiyasi.

Endi xalqaro shartnomalarni tuzish jarayonida bir nechta prinsiplarga to’xtalib o’tishimiz lozim. Birinchi navbatda, shartnomaning yaxlitligi prinsipi – ushbu prinsip Vena konvensiyasining 17-44-moddalarida shartnoma qismlarining majburiyligiga rozilik bildirish va shartnomaviy holatlarning bo’linishi haqida keltirib o’tilgan. Navbatdagisi, majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi hisoblanadi. Ushbu prinsipda shartnomaning tomonlari o’rtasida shartnomada keltirilgan bandlarni to’liq va vijdonan bajarishi lozimligi aytib o’tilgan. BMT Komissiyasi o’zining shartnomalar huquqi haqidagi yakuniy bayonotida:”Kuchga kirgan har bir shartnoma ishtirokchi tomonlar uchun majburiy va ular otmonidan sidqidildan bajarilishi shart”, - deb ushbu prinsipni ta’kidlab o’tilgan.⁶Uchinchi prinsipi bu – shartnomalarga amal qilinishi shart degan prinsipdir.

⁵ Yearbook of the ILC. – 1950. – Vol. II. – P. 227.

⁶ YILC. – 1966. – Vol. II. – P. 211.

O’zbekiston hududida ham xalqaro shartnomaning ikki tomonlama va ko’p tomonlama xalqaro shartnomalari amalga oshiriladi. Konstitutsiyamizning Tashqi aloqalar qismida ham xalqaro huquq prinsiplariga amal qilgan holda xalqaro shartnomalarni imzolash, ratifikatsiya qilish vakolatiga ega bo’lga bo’lgan subyektlar belgilab berilgan. Hozirgi kunda 250 dan ortiq ekologiya, intellectual mulk sohasiga oid, inson huquqlariga, terrorizmga qarshi kurash sohasi bo’yicha ko’p tomonlamali shartnomalar imzolangan. Ularning 70 dan ortig’i inson huquqlari bo’yicha

imzolangan. O‘zbekiston tomonidan inson huquqlarining asosiy 22 ta konvensiyasidan 20 tasini ratifikatsiya qilingan. Aynan xalqaro shartnomalarni tuzish, bajarish, to‘xtatib turish yoki denonsatsiya qilish bo‘yicha 2019-yilning 6-fevralida “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilinadi. Ushbu qonunda xalqaro doirada qabul qilinadigan shartnomalar turlari qaysi turdagi shartnomalarni ratifikatsiya orqali qabul qilinishini va qay tartibda qabul qilinishi bo‘yicha ko‘rsatmalar va talablar keltirib o‘tilgan. Ushbu qonunning 4-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi – bitta hujjatda, ikkita yoki bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bir nechta hujjatdan iborat bo‘lishi, shuningdek, o‘zining muayyan nomidan va tuzilish usulidan qat’i nazar, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan chet davlat, xalqaro tashkilot yoki xalqaro shartnomalar tuzish huquqiga ega bo‘lgan boshqa subyekt bilan yozma shaklda tuziladigan xalqaro kelishuv.

⁷ Ushbu qonunda O‘zbekiston nomidan xalqaro shartnomalarni tuzishda Tashqi ishlar vazirligi bunday munosabatlarni o‘rnatishi aytib o‘tilgan.

Umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, hozirda xalqaro shartnomalar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki davlatlar yoki xalqaro tashkilotlar bilan tuziladigan shartnomalar bo‘yicha turli xil nizolar kelib chiqadigan bo‘lsa aynan shu shartnomalar orqali muammolarga yechim topiladi. Yana xalqaro turdagi shartnomalar boshqa huquqiy hujjatlardan farqi bunday turdagi shartnomalar vaqt kam talab qilishi yoki biror turdagi katta hujjat qabul qilish muddatidan ancha oldin bo‘lishi hisobiga qulay hisoblanadi.

⁷ “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida – O‘zbekiston Respublikasi Qonuni - <https://lex.uz/docs/-4193761#-4193880>

Foydalanilgan manbalar:

1. Xalqaro shartnomalar huquqi: O‘quv qo‘llanma // Azimov M.M., Muminov A.R. – T.: TDYU nashriyoti, 2017. – 208b.
2. ICJ. Reports. – 1980. – P.89.
3. “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida – O‘zbekiston Respublikasi Qonuni - <https://lex.uz/docs/-4193761#-4193880>
4. Xalqaro ommaviy huquq: darslik / A.X. Saidov va boshqalar. – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 953b.
5. YILC. – 1966. – Vol. II. – P. 211.
6. Yearbook of the ILC. – 1950. – Vol. II. – P. 227.
7. 1969-yildagi “Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi Vena konvensiyasi